



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 12-mart, seshanba,
31 (23.908)-son

**KUN
HIKMATI**

Ota-bobosi
sabog'idan xulosa
chiqarmagan kishi
farzandiga
ibrat ko'rsata
olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Yigitlar harbiy xizmatga kuzatildi

Er yigitning hayotida shunday davr bo'ladiki, bunda uning xalqiga, Vatanga bo'lgan sadoqati sinovdan o'tadi. Bir tarafda ota-ona va uy sog'inchi, ikkinchi tarafda oliy burch — el-yurt osoyishtaligini himoya qilish vazifasi turadi. Shubhasiz, harbiy xizmat - mard o'g'lonlar toblanadigan maydon.



Prezidentimizning tegishli qarori bilan joriy yilning mart-aprel oylarida respublikamizda fuqarolarni mudatli harbiy xizmatga chaqiruv mavsumi o'tkazilmoqda.

Viloyatimizda ham belgilangan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan chaqiriluvchilarning dastlabki guruhi xizmatga kuzatildi. Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi yig'in punktida Vatan oldidagi burchini ado etishga shaylangan yuzlab jasur yigitlar uchun bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining birinchi o'rinbosari Q.Ochilov, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i B.Quvvatov, jamoat tashkilotlari vakillari harbiy xizmatchilar hamda ota-onalar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar harbiylikning mas'uliyati, sharafi haqida to'xtalib, xizmatga otlangan o'g'lonlarga bukilmas iroda, matonat, kuch va g'ayrat tiladi.

Chaqiriluvchilarga viloyat hokimligining esdalik sovg'alari topshirildi.

Urgut tuman mudofaa ishlari bo'limi yangi binoga ega bo'ldi. "BIG story //" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan homiylik asosida bunyod etilgan bino qurilishiga 6,2 milliard so'm mablag' sarflandi. Endilikda bu yerda bir vaqtning o'zida 220 nafar chaqiriluvchini qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Tumanimiz mudofaa ishlari bo'limining zamonaviy binosini ko'rib ko'zim quvnadi, — deydi "Nuroni" jamg'armasi Urgut tumani bo'limi raisi Farmon Azizov. — Bir vaqtlar tuman chaqiruv komissiyasining raisi sifatida yigitlarni harbiy xizmatga saralash ishlari ishtirok etganman. O'sha davr bilan hozirgisini solishtirib bo'lmaydi. Bitta kichkina xonaga uch-to'rt kishi kirib, chaqiriluvchilarni suhbatdan o'tkazar edi. Bugun esa har bir mutaxassis uchun alohida xona tashkil qilingan. Bu chaqiriluvchilarni har tomonlama chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazib, sog'lom va



MUDOFAA BO'LINING YANGI BINOSI

barkamol, jasur yigitlarni saralashga xizmat qiladi.

Bo'limning tantanali ochilish marosimida Markaziy harbiy okrug

qo'shinlari qo'mondoni Farrux Zi-yaboyev, viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov so'zga chiqib,

mudofaa tizimidagi islohotlarga to'xt-

aldi va tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarini bildirdi.

A.ISROILOV.

"Besh tashabbus olimpiadasi"

10-mart kuni "Besh tashabbus olimpiadasi" joriy yilgi mavsumining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Onlayn tarzda o'tkazilgan tadbirda respublikamizning 14 hududi va 208 ta tuman, shahar yoshlari ishtirok etdi.

Samarqand shahrida o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilov so'zga chiqib, olimpiadaning o'tgan yilgi loyihalarida viloyatimiz yoshlari umumjamoa hisobida respublikada birinchi o'rinni egalagan hamda Paxtachi tumani eng yaxshi natija qayd etganini ta'kidladi va joriy yilgi musobaqalarda ishtirokchilarga omad tiladi.

Joriy yil "Besh tashabbus olimpiadasi" mahalla yoshlari o'rtasida (26 ta loyiha) mart-dekabr oylarida, maktab o'quvchilari



o'rtasida (8 ta loyiha) sentabr-noyabr oylarida, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida (5 ta loyiha) sentabr-dekabr oylarida, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida (5 ta loyiha) sentabr-noyabr oylarida hamda ilk marotaba vazirlik, idora va tashkilot xodimlari o'rtasida (6 ta loyiha) noyabr-dekabr oylarida bo'lib o'tadi.

Bir yilda to'rt egizli to'rtinchi holat

Shifokorlar tug'ruqqa kelgan ayolga «preeklampsiya og'ir darajasi, surunkali piyelonefrit O'ng buyragi gidronefrozi II darajasi» kabi tashxislar qo'yilishi qanchalik jiddiy va xavotirli ekanini yaxshi bilishadi. Yana buning ustiga ko'zi yoriydigan ayol o'n yil farzand kutgan, kutayotganlari esa, to'rt nafar egiz chaqaloq bo'lsa. Shifokorlarning shoshilinch sa'y-harakatlari, tajribali mutaxassislarning tezkor qaror qabul qilishlari natijasida to'rt nafar chaqaloq ham eson-omon dunyoga keldi.



Munisa Bekmirzayeva homilador bo'lganidan boshlab nazoratimizda edi, — deydi viloyat perinatal markazi bosh shifokori Lola Hamroyeva. — UTT apparatida uning to'rt nafar egiz farzand kutayotgani ma'lum bo'lgach, qariyb har oyda tug'ruqxonaga kelib, muolajalar olib turardi. Ko'zi yorish arafasida ham birmuncha oldinroq kelishini tayinladik. Ahvoli ancha og'ir edi, to'rt egizakni ko'tarish osonmas, buni shifokor bo'lmagan odam ham yaxshi tushunadi. Chaqaloqlarning eng kichik vazni 1100 gramm og'irlikda tug'ilgan bo'lsa, eng kattasi 1750 gramm vazn bilan dunyoga keldi. Chaqaloqlarning salomatligini yaxshilash uchun zarur dori-darmonlar bepul berilmoqda.

Shuni alohida aytish kerakki, viloyat perinatal markazi keyingi bir yil davomida to'rt egizli chaqaloq ko'rgan to'rt nafar onaga xizmat

ko'rsatdi.

Farzandlarimizga Maryamxon, Habibulloh, Hafizulloh, Abdulloh deb ism berdik, — deydi biz bilan suhbatda Munisa Bekmirzayeva. — 2014-yil turmush qurgan bo'lsak, shu paytgacha qadar bormagan shifokorimiz qolmadi, oilamizdagi-lar, turmush o'rtog'im bilan barcha sinovlarga dosh berdik. Shukurki, Yaratgan bizga ham ota-onalik baxtini nasib etdi. To'g'risi, ahvolimdan o'zim qo'rqib ketgandim, shifokorlarga katta rahmat, boshdan o'zlari nazoratga olishdi, zarur muolajalarni amalga oshirishdi.

Asli qashqadaryolik, ammo bir necha yillardan beri Samarqandda istiqomat qilayotgan bu oila farzandlarini katta qilishda oiladagilarning yordamiga tayanamiz, deyishmoqda. «Kutganimizni bergan Alloh rizqini ham beradi», deydi Munisa.

Gulruh MO'MINOVA.

«Zavq va maqsadlar zinapoyaga o'xshaydi. Zinalar o'tirib dam olishga moslashmagan. Umrni shu zinalarda behuda o'tkazmaslik uchun g'ofillikdan tez uyg'ongan va hayotning mohiyatini to'g'ri anglab yetgan odam naqadar baxtli!» Hazrat Rumiyning bu hikmatidan bir necha xulosalar qilish mumkin.

Orzuning ushalishi mas'uliyatga aylanganda

2008-yilda, 8-sinfda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun maktab saralovida ilk bor qatnashib ko'rdim. Hali dunyoni faqat pushti ranglarda ko'radigan, g'o'r bir qizaloq edim o'shanda. Yillar o'tib, biror muvaffaqiyatga erishsam, bu menga yanayam ulkanroq maqsadlarni ko'zlash uchun zinapoya vazifasini o'tadi. Avval bakalavr, keyin magistratura bosqichida tahsil oldim. Bu muddat oraliqda boy berilgan imkoniyatlar, ko'z yoshlar, xatolar qatorida sururli damlar ham bisyor bo'ldi.

Odamlar orasida bu mukofot atrofida aylanib yuradigan turli "gap-so'zlar"ga e'tibor bermay, har yili qayta-qayta hujjat topshiraverdim, tuman, viloyat, respublika suhbatlarida qatnashishni kanda qilmadim. Suv tog'dan toshga urilib shirin bo'lgani kabi mayssa tog'nida qayta-qayta yorib chiqqandagi matonati kabi shu maqsadimga erishish yo'lida chekinmadim, yutqazganimni tan ola bilmasdim. Garchi bu mukofot imtiyozlaridan, deylik, o'qishga kirish imkoniyati menga lozim bo'lmasa ham va yana ko'plab «garchi»larga qaramay, ortga chekinish xayolimga kelmadi.

Va nihoyat 2024-yil 4-mart kuni Prezidentimiz qarorida o'z ism-sharifimni ko'rganimda, 7-mart kuni taqdirlov vaqti-da onam eng baxtli onalarini yashaganida, dadam ko'zida yosh bilan tabriklab qo'ng'iroq qilganida, jigarlarim hayajon to'la bir vujud bo'lib menga xayrixoh bo'lganida, butun tumanimiz ahli, men bilgan-bilmaganlarim qutlovlarini entikish bilan izhor etganida bu shunchaki orzuning ro'yobi emasligini angladim. Prezidentimiz qo'limni siqib: "Shu yo'lida bardavom bo'ling, bu oxirigisi bo'lmasin, ota-onangizga rahmat, butun toyloqliklarga salomimni yetkazing" deganlarida, bildimki, men tanlagan maqsad zalvori ulug', kelgusidagi mehnati avvalgisidan-da mash-aqqatli yo'l ekan.

Hozir yana ko'plab maqsadlar oldida mas'uliyat bilan kela-jakka qarab turibman. Avvalo, oilam bilan nasib etsa, uch nafar farzandimni risoladagidek tarbiya qilishga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi har qanday ilmi o'rganish uchun imkoniyatim yetgan-cha harakat qilaman.

Yaqin orada qishlog'imizning ma'rifatga, ilmga, kitob o'qishni barcha yumushlaridan baland ko'radigan, kitobning qora harflaridan hayotning oydin oq yo'llarini izlagan ahli uchun zamonaviy kutubxona — ziyo-nur markazini barpo etishni niyat qildim. Ziyozi orqali moddiy hayoti farovon oilalarimiz ko'payishi uchun ham qalamim, ham qadamim bilan xizmat qilishni niyat qildim.

Nargiza YUNUSOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori,
"Qo'shchinor" gazetasi muxbiri.

16-18-mart kunlari
mamlakatimizda «Obod va fayzli
mahalla - yurt ko'rki» shiori
ostida umumxalq xayriya hashari
o'tkaziladi





Ijtimoiy xodim kim?

Yurtdoshlarimizning ijtimoiy himoyaga oid huquq va manfaatlarini ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini tubdan oshirish, manzilli yordam ko'rsatilishiga erishish maqsadida o'tgan yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Viloyatlarda agentlik boshqarmalari, tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

2023-yil 15-oktabrdan boshlab dastlab 28 ta tuman va shaharda eksperiment tariqasida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi va ijtimoiy xodimlar guruhlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar, yordamlar ko'rsatishning yangi tizimi yaratildi.

Joriy yildan boshlab mazkur tizim butun mamlakatimiz bo'ylab ishlay boshladi. Shu paytgacha "beshlik" tarzida faoliyat ko'rsatgan mahallalarda endilikda ijtimoiy xodim va soliqchi faoliyati ham yo'lga qo'yilib, "mahalla yettiligi" paydo bo'ldi.

Xo'sh, ijtimoiy xodim kim, uning vazifasi nimalardan iborat?

– Mahallada ishlaydigan ijtimoiy xodim aholining ijtimoiy xizmat va yordamlar, shuningdek, ijtimoiy ish faoliyati haqida xabardorligini oshirish, ijtimoiy himoya-ga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishni tashkil qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning murojaatiga asosan, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda o'z tashabbusi bilan "ijtimoiy ish"ni ochish hamda individual ijtimoiy xizmatlar rejasini tuzish uchun dastlabki baholash o'tkazishni amalga oshiradi, – deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Sardor Luqmonov. – Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga zarur hollarda qisqa muddatli individual ijtimoiy yordam rejasini tuzadi, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar to'g'risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha tushuntirish beradi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va boshqalar bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning muammolari yechish bo'yicha kompleks choralar ko'radi. Umuman, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq asosiy masalalar ijtimoiy xodim zimmasida bo'ladi. Xodim bu vazifalarni "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali amalga oshiradi.

O'tgan yil 15-oktabrdan boshlangan eksperimentda bizdan Paxtachi tumani va Kattaqo'rg'on shahri tumani tanlanib, mazkur hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazlari tashkil etildi. Markazlarda katta yoshdagilar va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar, nogironlar bilan ishlash, mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish, bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy to'lovlar shu'balari faoliyat ko'rsatadi. Joriy yildan viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarda shunday markazlar ish boshladi. Ularning har birida 10-12 nafar xodim ishlayapti. Hozirgacha 7 ta markaz belgilangan talablar asosida jihozlangan, xodimlar va aholi uchun zarur sharoit yaratilgan o'z binosiga ega bo'ldi. Qolgan markazlarni ham shunday binolar bilan ta'minlash chorasi ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, hozirda Paxtachi tumani va Kattaqo'rg'on shahridan tashqari barcha tuman va shaharlardagi mahallalar uchun ijtimoiy xodimlarini saralash jarayonlari davom etmoqda. Bu borada ham aniq tartib-qoidalar mavjud, ya'ni ijtimoiy xodim vazifasiga ishga qabul qilish me'yorlari ishlab chiqilgan. Shu asosida nomzodlar o'rganilmoqda va ular vacancy.argsos. uz tizimi orqali ishga qabul qilinadi.

Mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyat ko'rsata boshladi. Aytish mumkinki, tizim kutilgan natijani berdi. Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida xonadonbay ish olib borildi. Kimga qanday turdagi ijtimoiy ko'mak ko'rsatish zarur bo'lsa, yangi tizim orqali amalga oshirildi.

Eksperiment joriy etilgan Paxtachi tumanida 59 mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. O'tgan yil bu mahallalarda oila sonidan kelib chiqib (har 2-2,5 ming oila uchun bir nafar), 26 nafar ijtimoiy xodim ish boshladi.

– Ijtimoiy xodimlarimizning 12 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi, – deydi Paxtachi tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori Gulchehra Bobonazarova. – Shuningdek, mahallalarda yolg'iz keksalar, nogiron va bemorlar-

ning uy-ro'zg'or yumushlariga ko'maklashuvchi 20 nafar ijtimoiy assistent bor. Bevosita markazning o'zida esa 10 nafar ijtimoiy xodim faoliyat ko'rsatadi. Har bir shu'bada 2 nafardan oliy ma'lumotli, o'z yo'nalishi bo'yicha zarur bilim va malakaga ega mutaxassislar ishga qabul qilingan. Bundan tashqari, 2 nafar psixolog va 1 nafar huquqiy masalalar bo'yicha maslahatchidan iborat mobil guruhimiz mavjud.

Bizning asosiy faoliyatimiz og'ir ahvolga tushib qolgan va shu holatga tushish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, mazkur toifadagi aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish rejalarini ishlab chiqish, tashkil etish, bu ishga ko'ngillilarni jalb qilish kabi vazifalardan iborat. Qariyb to'rt oydan buyon zimmamizdagi ana shu vazifalardan kelib chiqib, bir qator ishlarni amalga oshirishga erishdik.

Jumladan, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan 5 nafar yolg'iz yashovchi hamda kekka va nogironligi bo'lgan shaxs aniqlanib, "Yolg'iz kekka" reyestriga kiritildi. Hozirgi kunda ushbu reyestrda tumanimiz bo'yicha 129 nafar shaxs ro'yxatda turadi va ijtimoiy assistentlar xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shu yilning 15-23-yanvar kunlari tuman tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz kekka va nogironligi bo'lgan shaxslar to'liq chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riqdan o'tkazildi. Ko'rik natijasida ularning 2 nafari nogironlik aravasiga, 1 nafari ko'zoynakka, 10 nafari hassaga muhtojligi aniqlandi.

4568 nafar nogironligi bo'lgan shaxsning 117 nafari reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlandi. Yil boshidan buyon yana 18 nafar fuqaroga elektr yuritmalari aravacha, qo'ltiq tayoq va boshqa vositalar berildi.

O'tgan yil 1-noyabrdan buyon mahallalardagi ijtimoiy xodimlar tomonidan ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi alohida elektron modul – e-case asosida 301 ta keys, ya'ni ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lganlarga ijtimoiy yordam va xizmat yaratildi. Mobil guruh esa 87 nafar fuqaroga psixologik yordam ko'rsatdi va ularning 73 nafarida ijtimoiy o'zgarishlar kuzatildi. 79 nafar shaxsga yurist konsult yordami berildi.

Ijtimoiy to'lovlar shu'basi xodimlari tomonidan "Ijtimoiy himoya" yagona reyestri orqali 2023-yil noyabrda 12129 oila (tumandagi jami oilalarning 26 foizi)ga ijtimoiy nafaqa tayinlangan bo'lsa, 2024-yil yanvar holatiga tumandagi 46824 ta oiladan 10009 tasiga (21,4 foiz) ijtimoiy nafaqalar tayinlandi.

Bir necha yil hokimlik tizimida, xalq bilan birga ishlab kelayotgan davlat xizmatchisi sifatida aytishim mumkinki, yangi tizim haqiqiy muhtoj insonlarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvatlashning samarali usuliga aylanmoqda.

Kezi kelganda ta'kidlash lozim, davlat rahbarining tegishli qarorida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishda ijtimoiy xodimlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanishi belgilangan.

G'olib HASANOV.

Maqom belgilanib, nimalar o'zgardi?

Endi muallimning ishiga aralashish qimmatga tushadi

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Uni obro'sizlantirish, sha'ni va qadr - qimmatini kamsitish, haqorat qilish javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasiga ko'ra, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish —bazaviy hisoblash miqdorining (340 ming) yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yashirib nima qildik, shu paytgacha o'qituvchining obro'sini to'kish, misol uchun maktabga kelib, uni haqorat qilib ketganlarga ko'z yumib kelindi. Aniqliqrog'i, jazava bilan ustozlarga tashlangan shovvovzlarni hovuridan tushirishga, "kelishish"ga majbur edik. Endi ularning "hovuri"ni tushirib qo'yish imkonini yaratildi.

BUYAM YANGILIK

Qayd qilingan qonunning 5-moddasida pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirishini ta'minlash kafolatlari belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga asosan, ish beruvchi pedagogning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Shuningdek, pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Qonunning 6-moddasida pedagogning bevosita huquqlari yoritilgan. Xususan, ta'lim tashkiloti

tomonidan pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, pedagog ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmagan holda, o'z arizasida huquqbuzarning shaxsi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ishni hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ko'rsatib, sudga bevosita murojaat qilishga haqli.

JAVOBGARLIK QANAQA BO'LADI?

Bilasiz, pedagog o'z sha'nini himoya qilib sudga murojaat qilganda davlat boji to'lamaydi. Xo'p, javobgarga qanday chora qo'llaniladi?

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 197-5-moddasida ta'lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga ta'lim oluvchilarning bilimini to'g'ri va xolis baholashiga ta'sir ko'rsatish bilan ifodalangan tarzda qonunga xilof ravishda aralashish yoki ta'lim tashkiloti pedagog xodimning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik belgilangan.

Bunday harakat fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'QITUVCHI FAQAT TA'LIM BERADI

Bu yangilik garchi aytilgan qonun bilan bevosita bo'lmasa-da, bilvosita bog'liq. Jumladan, davomat masalasi bilan Milliy gvardiya shug'ullana boshlaganidan ko'pchilik xabardor. Vazirlikning ma'lum qilishicha, ustoz-murabbiylar o'z ishlari bilangina shug'ullanishi uchun yana bir yangilikka qo'l urilmoqda.

Xususan, 2024-yil yakuniga qadar barcha maktablarga "Tashvish tugmasi" o'rnatiladi. Ta'lim muassasasida ko'ngilsiz holat kuzatilgan taqdirda undan foydalaniladi.

Bunda "Tashvish tugmasi" ta'lim muassasasi mas'ul xodimi yoki pedagog xodim tomonidan bosilganda mazkur maktabga 3-5 daqiqa ichida Milliy gvardiyaning qo'riqlash xizmati xodimlari yetib kelib, holatni nazoratga oladi.

Sanobar MIRSAIDOVA, Samarqand tumani 25-maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

GO'ZALKENT NOMIGA MUNOSIB BO'LADI

Hududlarni obodonlashtirish, infratuzilmani yaxshilash, bandlikni ta'minlash va aholiga qulaylik yaratish maqsadida "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" dasturlari amalga oshirilmoqda. Past Darg'om tumani Go'zalkent mahallasida ham ushbu mezonlar asosida ishlar olib borilmoqda.

Go'zalkent ko'p yillar avval tuman markazi sifatida obod go'sha bo'lgan. Biroq keyinchalik ikki tuman birlashtirilgach, bu mahallaga e'tibor kamaydi. Bir paytlar hatto o'z xiyoboniga ega bo'lgan hududda daraxtlar kesildi, ko'p qavatli uylarda yashovchilar uchun yetarli sharoitlar yaratilmadi. Yuqoridagilar e'tiborga olinib, yo'l xaritasi ishlab chiqilib, joriy yil yanvar-mart oylarida bu mahallada istiqomat qiluvchilarning yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash uchun ishlar boshlandi.

O'tgan yili shu hududdagi Olti qahramon mahallasi obodonlashtirilgan edi, bu yil Go'zalkent mahallasi yangi qiyofaga kiriyapti, – deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Begali Yakubov. – Bu mahallada uchta qishloq, 14 ta ko'p qavatli uy-joy bor. Eng avvalo, aholini qiynayotgan yo'l, elektr, ichimlik suvi masalalari hal bo'layotgani odamlarning kayfiyatini ko'tarmoqda. Rejaga asosan, 6,5 kilometr ichki yo'l asfaltlanadi, 6,7 kilometr yo'lga shag'al to'shaladi, ya'ni mahallada birorta tuproq ko'cha qolmaydi. Shavkat Rahmon va Navobod ko'chalarida ichimlik suvi tarmog'i tortilyapti. Bundan tashqari, mahallada o'tgan asrning 80-yillarida qurilgan 5 ta ko'p qavatli uyda yashovchilarning ichimlik suvi muammosi ham hal etildi. Go'zalkent ko'p yillar oldin tuman markazi bo'lishiga qaramasdan, o'sha paytda ham ichimlik suvi muammosi bo'lgan, hozir 3 ta yangi suv inshooti qurilib, tarmoq tortilishi hisobiga hudud to'liq ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda. Bu ishlar odamlarning ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xonadonlarda oila uchun zarur barcha sharoit yaratildi. 280 dona eski simyog'och

o'rniga beton tayanch, qo'shimcha 2 ta nimstansiya o'rnatilmoqda, yo'llar ta'mirlanmoqda.

Mahalladagi 14 ta kam ta'minlangan oila xonadonlarini obodonlashtirish bo'yicha tuman tashkilotlari birlashtirilgan. Tuman obodonlashtirish boshqarmasidan kuniga 50-60 nafar xodim va barcha texnikalari to'liq jalb etilgan. Uzunligi 720 metrni tashkil qilgan "bulvar" qaytadan tiklanib, qo'shimcha ming tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilmoqda, o'rtada 3 metr piyodalar yo'lagi, quyosh panellari bilan 280 ta tungi yoritish moslamalari, o'rindiqlar o'rnatiladi. Ko'p qavatli uylarning orqa qismidagi 70-80 sotix chiqindixonaga tozalani, mevali bog' tashkil etilmoqda. Hozirda dam olish maskani homiylik mablag'lari hisobidan obodonlashtirilmoqda. Shuningdek, respublika budjetidan 1,5 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan va bu mablag'ga ko'p qavatli uylarning tashqi qismini ta'mirlashni rejalashtirganmiz. Tuman hokimligi tomonidan esa 2 milliard so'mga yaqin mablag' ajratilmoqda.

Mahalladagi 802 ta xonadonda, 3600 aholi istiqomat qiladi. Bugun barcha xonadonlarni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlariga kirishilgan.

Mahallaning 60 foizi tabiiy gazga, 40 foizi suyuqlashtirilgan gazga moslashtirilgan, – deydi Go'zalkent mahallasi raisi Ilhom Norboboyev.

Hozirda tarmoqlar ta'mirlanib, ehtiyoji bor oilalar gaz ballonlari bilan ta'minlanmoqda. Ko'p yildan buyon ishlamay turgan bog'cha ta'miri ham yo'l xaritasiga kiritilgan, maktab uchun qo'shimcha bino va sport zal qurilishi, qabrston atrofini o'rash rejalashtirilgan. Hozirda internet tarmog'i tortish ishlarini yakunlandi.

Mahallaning katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Tushuntirish ishlarini tufayli aksariyat aholi tomonidan qo'sqonbosti usulida ekin ekishni yo'lga qo'ygan. 2-4 sotixli kichik issiqxona quruvchilar uchun kreditlar ajratilmoqda.

Mahalladagi o'zgarishlarni ko'rib, biz ham xonadonimizda qurilish-ta'mirlash ishlariga kirishdik, – deydi shu mahallada yashovchi Xanjar Murodov. – Hozir hamma o'z uyi atrofini obodonlashtirib, ko'chatlar ekishmoqda. Ikki oy avval qish uyqusidagi mahallamiz birdan uyg'onib, yangi qiyofaga kirganday bo'lyapti. Odamlar o'zgarishlarni ko'rdi, tomorqadan unumli foydalanishni o'rganmoqda, davlatning e'tibori va g'amxo'rligini his qildi. Bu ishlar butun mahalla ahlining ertangi kunga bo'lgan ishonchi yanada oshishga olib keladi.

Eslatib o'tamiz, bu kabi qurilish-bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini Narpay tumanining Salovot mahallasi aham olib borilmoqda.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, "Zarafshon" muxbiri.



Mirzaqul Risqulov Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilib o'sdi. Otasining 4-5 tanob yeri bo'lib, oilasining tirikchiligi asosan ana shu yerlarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotish bilan o'tardi. Ro'zg'or boshlig'i zehni baland o'g'li Mirzaqulning savodli odam bo'lib yetishishiga ishtiyoqmand edi. Shu sabab uni 6-7 yoshidan mahalladagi eski usul maktabiga berdi. Bu yerda to'rt-besh yil o'qib, arab imlosi, hisob darslarini o'zlashtirdi, durustgina savodxon bo'lib yetishdi. Shundan keyin 17-18 yoshigacha otasi yonida turib, ro'zg'or yukini birga tortdi.

1922-yildan boshlab uni Kattaqo'rg'on shahar yoshlar uyushmasi – komsomol qo'mitasiga ishga taklif qilishdi. So'ng 1925-yilgacha iqtisod va huquq bo'limi mudiri bo'lib ishladi. 1925-yilda u qizil armiya safiga olindi. Ko'p o'tmay mahalliy millat vakillaridan bo'lgan, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan bu savodxon yigitni Moskvaga, Butunittifoq kommunistlar universitetiga o'qishga yo'llashdi. 1928-yilda universitetni harbiy jurnalist ixtisosligi bo'yicha bitirgan Mirzaqul Risqulov "kichik siyosiy rahbar" unvoni bilan Samarqandda joylashgan 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasining "Qizil Yulduz" gazetasi muharrirligiga tayinlandi. U o'zbeklardan chiqqan ilk oliy ma'lumotli harbiy jurnalistlardan biri edi.

"Hibsga olish chorasi haqida QAROR

Samarqand shahri 1937-yil 10-sentabr

Men, NKVD Davlat xavfsizligi bosh boshqarmasining O'rta Osiyo harbiy okrugidagi alohida bo'limi I-bo'linmasi boshlig'i, Davlat xavfsizligi leytenanti Vasilev. Risqulov Mirzaqulga oid qo'limdagi tergov materiallarini ko'rib chiqib, **quyidagilarni aniqladim:**

Mavjud materiallar asosida Risqulov Mirzaqul o'zi muharrirlik qilgan "Qizil Yulduz" gazetasidagi tahririyati xodimlarini aksilingilobchi-millatchi shaxslardan, ya'ni u bilan yaqin aloqada bo'lgan, uning aksilingilobchi-millatchilik g'oyalari qo'llab-quvvatlovchi kishilardan talab olganligi fosh qilindi. Buning natijasida Risqulov gazeta sahifalarida xalq dushmanlari tomonidan aksilingilobchi chiqishlar qilinishiga yo'l ochib bergan. Shuningdek, tergov tomonidan Risqulovning endilikda hibsga olingan xalq dushmani Rizayev bilan yaqin aloqada bo'lgani ham aniqlandi. Risqulov 19-tog'-otliq diviziyasidagi xizmati davomida qism rahbariyati tarkibidagi aksilingilobchi-millatchi shaxslar bilan yaqinlashdi. Ya'ni, sobiq diviziya komandiri Mirsharopov tuzgan tashkilotga a'zo bo'lib, O'zSSR JK 66-moddasi I-qismida ko'zda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Ana shularni hisobga olib, **QAROR QILDIM**

Risqulov Mirzaqul 1904-yilda Kattaqo'rg'on shahrida dehqon oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek, xizmatchi. 1937-yilda aksilingilobchi-millatchilik faoliyati uchun partiya safidan o'chirilgan. 1925-yildan ishchi-dehqon qizil armiyasida xizmatda. Oxirgi xizmat joyi 19-o'zbek-otliq diviziyasining "Qizil Yulduz" gazetasi muharriri. Samarqand shahrida yashaydi. Risqulov Mirzaqul **hibsga olinsin** va unga O'zSSR JK 66-moddasi I-qismiga ko'ra ayblovlari e'lon qilinsin. Hibsga olingan Risqulov O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Samarqand sektorining ichki qamoqxonasida saqlansin.

"Roziman" O'rta Osiyo harbiy okrugidagi Davlat xavfsizligi bosh boshqarmasi alohida bo'limi boshlig'i yordamchisi, katta leytenant ZABRODIN

NKVD Davlat xavfsizligi bosh boshqarmasining O'rta Osiyo harbiy okrugidagi alohida bo'limi I-bo'linmasi boshlig'i, Davlat xavfsizligi leytenanti VASILEV

1937-yil 18-sentabr kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Zagvozdinning ko'rsatmasi bilan M. Risqulov NKVDning Toshkentdagi ichki qamoqxonasida saqlash uchun yuboriladi.

Diviziya gazetasi muharriri bo'lgan bu odam shaxsiga NKVD rahbariyatining e'tibori nega bunchalik oshib borayotgan edi? Hamma gap shundaki, NKVD yo'q qilishni, nomiga qora chaplab, aksilingilobchi-millatchi, "xalq dushmani" kabi ayblovlar bilan badnom etishni rejalashtirgan sovet davlatidagi birinchi o'zbek generali Mirkomil Mirsharopovni hibsga olishga tayyorgarlik ko'rilayotgandi. Buning uchun esa zamin hozirlanishi lozim edi. Ana shu asosni yaratish niyatida u ilgari qo'mondonlik qilgan Samarqanddagi 19-o'zbek-otliq diviziyasidagi millati o'zbek, tojik bo'lgan ofitserlar - qismning siyosiy rahbariyati birin-ketin asosiy maqsadi harbiy chiqishlar uyushtirib, go'yo O'zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish bo'lgan allaqanday "aksilingilobchi-millatchilar" tashkilotiga a'zolikka ayblanib, hibsga olina boshladilar. Bular orasida diviziya siyosiy bo'limining boshlig'i, Moskvada Tolmachev nomli akademiyani bitirgan Yunus Narimonov, diviziya ofitserlaridan Sodiq Yoqubov, Botir Yo'ldoshev, Mirsaid Shamirboyev, Burxon Hamroqulov kabi

MUHARRIRNING QISMATI

yigirmadan ziyod kishi bor edi. Mirzaqul Risqulov ham shular qatorida hibsga olindi.

Tergov materiallaridan u 20-30 kun davomida o'ziga qo'yilgan barcha ayblarni rad etgan, ularni tuhmat, deb tan olmagan ko'rinib turibdi. Lekin ana shu vaqt ichida boshidan kechirgan jismoniy va ruhiy azoblar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buni



9-10-oktabr kunlari

Davlat xavfsizligi katta leytenanti Muginshteynning Toshkentdagi NKVD hibsxonasida o'tkazgan so'roq dalolatnomasidan ham bilsa bo'ladi.

Savol: Siz 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasida mavjud bo'lgan aksilingilobchi-millatchilar guruhi a'zosi sifatida hibsga olingansiz. Lekin mana, 20 kun davomida ushbu tashkilot a'zosi bo'lganligingizni qat'iy rad etyapsiz. Bundan keyin ham shunday yo'l tutib, o'zingizning aksilingilobchi faoliyatigizni inkor qilasizmi?

Javob: 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasida mavjud bo'lgan aksilingilobchi tashkilotga men 1936-yil yozida diviziya siyosiy bo'limi boshlig'i Narimonov tomonidan jalb etilganman...

Savol: Narimonov sizni ushbu tashkilotga tortish chog'ida uning ishtirokchilari sonini raqamlar bilan aytmagan, balki nomma-nom tilga olgan. Nega buni bizdan yashirayapsiz?

Javob: Narimonov meni tashkilot safiga jalb qilish paytida uning a'zolaridan faqat uch kishining nomini aytgan. Bular – Mirsaid Shomirboyev – 42-polk o'quv-tayyorgarlik maktabi boshlig'i, Sulaymon Isomuddinov – 41-otliq polki shtabi boshlig'i, Xolmat Shukurov – diviziya shtabi 1-qism boshlig'i ning yordamchisi.

Savol: Siz aldayapsiz. Tergov sizdan tashkilotning Narimonov va o'zga manbalar orqali ma'lum bo'lgan boshqa a'zolari nomini ham aytishingizni talab qiladi.

Javob: Menga yana olti kishining nomi ma'lum. Bular – diviziya partiya komiteti kotibi Burhon Hamroqulov, diviziya siyosiy bo'limi yo'riqchisi Mamadali Otayev, diviziya siyosiy bo'limi yo'riqchisi Jo'raboy Shokirov, diviziya siyosiy bo'limi yo'riqchisi Botir Yo'ldoshev, 42-otliq polki harbiy komissari Abdurahimov, 42-otliq polki ot o'rgatuvchisi Sodiq Yoqubov...

Tergov materiallarini o'qir ekansiz, bu javoblar oldindan tayyorlanib, M. Risqulovga jismoniy qiynoqlar orqali imzo chektilirganiga amin bo'lasiz. Axir tergovchi, deylik, Narimonov va Risqulov o'rtasidagi «suhbat»da qatnashmagan bo'lsa, "Narimonov ishtirokchilari sonini raqamlar bilan aytmagan, balki nomma-nom tilga olgan", deb qanday ta'kidlaydi?

Yoki M. Risqulov tergovchining "Narimonov sizning oldingizga qanday vazifalarni ko'ygan edi?", degan savoliga bergan javobga e'tibor qilib: "Narimonov menga "Qizil Yulduz" gazetasini mavjud tuzumga nisbatan tuhmat targ'ibotlar olib boruvchi, partiya va sovet hukumati o'tkazayotgan tadbirlarni buzib talqin etuvchi qurolga aylantirish vazifasini topshirgan edi".

Bunday javobni hujjatlashtirib, M. Risqulovning "xalq dushmani" ekanligiga bir dalil, deb bilgan NKVDning katta leytenanti Muginshteyn hatto gazeta bosmaxonaga topshirilgunicha qanday jarayonlardan o'tishini ham bilmagan. U gazetaning har bir soni muharrir o'qib, imzolaganidan keyin faqat bevosita o'sha paytlar NKVD tasarrufidagi "Matbuotda davlat sirlarini saqlash boshqarmasi", ya'ni "O'ZLIT"ning mas'ul xodimi ko'rib, qo'l qo'yib, muhr bosgandan keyin uni bosmaxona qabul qilishidan bexabar bo'lgan. Agar shunday sharoitda gazetada "aksilingilobchi ruhda" maqolalar bosilgan bo'lsa, bunga nafaqat muharrir, balki uni o'qib, bosishga ruxsat bergan NKVD tasarrufidagi idora xodimi ham javobgardir. Yolg'on dalillar to'plashga, soxta ayblovlarni shakllantirishga beri-

lib ketgan tergovchi Muginshteyn masalaning bu tomoniga hatto e'tibor ham qilmagan.

Mana shu keltirilgan misollarning o'ziyoq M. Risqulov ustidan qo'zg'atilgan "jinoyat ishi" boshdan-oyoq tuhmatlardan iborat ekanligini anglatadi. SSSR davlati qulaguncha (undan keyin ham bir muddat) mavjud bo'lgan senzura bu mamlakatda chop etilgan biror bir matbuot

nashri yoki jurnal, kitoblarda (yashirib bosilganlar bundan mustasno) partiya yoki sovet hokimiyati o'tkazgan tadbirlarni tanqid qilishi, buzib ko'rsatishiga o'rin qoldirmagan.

Yuqorida aytganimizdek, bunday ishlar barchasi bir maqsadga – 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasida "aksilingilobchi-millatchilar" guruhi bo'lganligi va uni qismning ilgari qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov tuzib ketganligini «isbotlash»ga qaratilgan edi. Shu sababli 1937-yilning 1-noyabri – birinchi o'zbek generali M. Mirsharopov Rostov-Don shahrida hibsga olinguncha, Samarqanddagi bu diviziyaning yigirmadan ziyod o'zbek ofitserlari qamaldilar, dahshatli qiynoqlar ostida o'zlariga va M. Mirsharopovga qilingan bo'htonlarni "to'g'ri" deb tan olishga majbur bo'ldilar. Birinchi o'zbek harbiy jurnalistlaridan bo'lgan, bu soha bo'yicha oliy ma'lumot olgan Mirzaqul Risqulov ham ular qatorida edi.

Unga shuningdek, "Qizil Yulduz" gazetasidagi tahririyatini aksilingilobchi-millatchilik ruhida g'oyalarni tashuvchi kishilar bilan to'ldirgani, xodimlardan Shukrullayev - jadid, Yusupov – "Milliy Ittihad" tashkiloti a'zosi, Ochilovning xotini esa mullaning qizi bo'lganligi, partiyadan o'chirilgan Ubaydullayev, o'zining o'rinbosari, aksilingilobchi Mirabdullayev, "xalq dushmani" Sulton Galievning qizini ishga olganligi katta bir ayb sifatida taqildi.

Mirzaqul Risqulovning ishi bo'yicha guvoh sifatida tergov qilingan **N. Bekmurodov ko'rsatmalaridan:** Risqulov diviziyadagi ashaddiy aksilingilobchilardir. U tahririyatni ijtimoiy yot unsurlar bilan to'lirdi".

P. Borisov ko'rsatmalaridan: Risqulovning xalq dushmanlari bilan yaqin aloqada ekanligi diviziyadagilarga yaxshi ma'lum edi... U xalq dushmanlari Rizayev, Yusupov bilan yaqin aloqada bo'lgan. Yusupov orqali esa shoir Cho'lpov bilan do'stona munosabat o'rnatgan. Yozuvchilar uyushmasining Samarqand bo'limi raisi bo'la turib, hech qachon va hech yerda aksilingilobchi-millatchilik ruhida yozuvchilarini fosh etmadi.

Turli tazyiqlar ostida M. Risqulovga qarshi yana o'nga yaqin kishidan ana shunday ko'rsatmalar olindi. Bundan tashqari, unga 1923-1925-yillarda "Milliy Ittihad" tashkilotining Kattaqo'rg'on bo'limi a'zosi bo'lgan", degan ayb ham qo'yildi. Yana avvaldan tayyorlangan so'roq hujjatlariga imzo chektilirganligini taxmin qila olamiz, xolos.

1937-yil 28-sentabr kuni o'tkazilgan so'roq dalolatnomasidan:

Savol: Siz "Milliy Ittihad" aksilingilobchi-millatchilik tashkilotiga kim tomonidan va qachon jalb qilingansiz?

Javob: Men "Milliy Ittihad" aksilingilobchi-millatchilik tashkilotiga 1923-yilda Kattaqo'rg'on uyezd ijroiya qo'mitasining sobiq raisi Qori O'rin Abdurahimov tomonidan jalb etilganman. O'sha paytlar shahar komsomol qo'mitasida bo'lim mudiri edim. Kyns 1923-yilda uyezd ijroiya qo'mitasi a'zolicigiga ham saylandim.

Yana bir holat ham tergov hujjatlarida aks etirilgan. 1936-yil avgust oyida Mirkomil Mirsharopov 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi tashkil etilganligining 15 yilligi tantanalarida ishtirok etish uchun Samarqandga keladi. Shu munosabat bilan diviziya siyosiy bo'limining boshlig'i Yunus Narimonov o'z uyida katta ziyofat uyushtiradi. Unga M. Mirsharopov bilan birga xizmat qilgan ofitserlarni taklif qiladi. Bu ziyofatda general Mirkomil Mirsharopov diviziya qo'mondoni ekanligi "Qizil Yulduz" gazetasi muharriri bo'lgan Mirzaqul Risqulov ham ishtirok etgan. Keyinchalik tergov jarayonida bu ziyofat diviziyadagi aksilingilobchilarning yashirin yig'ini, deb talqin qilingan. Go'yo unda to'planganlar Mirkomil Mirsharopovdan o'zlarining sovet tuzumiga qarshi faoliyatlarini kuchaytirish bo'yicha yangi ko'rsatmalar olgan emish...

Xullas, mana shunday ayblovlar bilan to'ldirilgan Mirzaqul Risqulovning "jinoiy ishi" 1938-yil 10-oktabr kuni SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi-

ning Toshkentda bo'lgan sayyor majlisida ko'rib chiqiladi. Unga brigada harbiy yuristi Alekseyev raislik qilgan. A'zolari brigada harbiy yuristi Zaysev va 1-toifali harbiy yurist Boldirev bo'lishgan. Harbiy tribunaldagi Mirzaqul Risqulov O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-2, 64, 67-moddalariga ayblangan. Tribunal ishi soat 16 dan 15 minut o'tganda boshlanib, 16 dan 45 minut o'tganda yakunlangan. Mana, M. Risqulovning tribunal majlisida aytganlaridan ayrim parchalar: "Men o'zimni aybsiz deb bilaman va tergovda tazyiq ostida bergan barcha ko'rsatmalarimdan voz kechaman". "Men bu ko'rsatmalarimni jismoniy va ruhiy bosimlar, azoblashlar ostida berganman. Meni nafaqat o'z shaxsimga, balki boshqalar sha'niga ham tuhmat gaplarni aytishga majburlashdi". "Men hech qachon qandaydir aksilingilobchi tashkilot a'zosi bo'lgan emasman va sovet hokimiyatiga qarshi hech qanday targ'ibot olib borgan emasman".

Bor-yo'g'i yarim soat davom etgan harbiy tribunal majlisida uning bu gaplari, ko'rsatmalari umuman e'tiborga olinmadi. Harbiy tribunal uni otib o'ldirishga hukm qildi. Tergov va harbiy tribunall hujjatlarini o'rganar ekanman, bu yerga tikib qo'yilgan bir dalolatnomaga ko'zim tushdi. Unda shunday deyilgandi: "Mirzaqul Risqulovni otib o'ldirish haqidagi hukm 1938-yil 10-oktabr kuni Toshkent shahrida ijro etildi".

Demak, hukm chiqqanidan bir necha soat o'tib, u otib o'ldirilgan. O'z intilishlari tufayli o'qib o'rgangan, 1920-yillardayoq oliy ma'lumotli jurnalist ixtisosligini egallagan va bu sohada barakali ijod qilgan kattaqo'rg'onlik bir o'zbek yigitining achchiq qismati shu tariqa yakun topdi...

Albatta, bizni uning oila a'zolari haqidagi ma'lumotlar ham qiziqtirardi. Mirzaqul Risqulov hibsga olingan paytda uning oilasi – xotini Risqulova Ravza Bozorboyevna, olti yarim yoshli qizi Raisa, bir yarim yoshli o'g'li Damir bo'lganligi ma'lum. Bu hujjatlarda aks ettirilgan. Ularning keyingi taqdiri qanday kechgan? "Xalq dushmani"ning oilasi sifatida boshiga qanday kunlarni solishgan? Bu savollarga javob qidir-dik. Raisa voyaga yetgach, birinchi bo'lib otasining taqdiri bilan qiziqdi. Hali mana shu qatag'onlarning boshida turgan Stalin shaxsi qoralanmasdan turib SSSR Prokuraturasi, Oliy sudiga 1954-yil 7-dekabrda maktab yo'llab, otasining qamalagandan keyin qayerga jo'natilgani, uning tirikmi yoki vafoti haqida ma'lumot so'radi. Mirzaqul Risqulovning otib o'ldirilganiga 16 yildan oshgan bo'lsa-da, o'sha paytlar Moskva-d-57, Golovanov tor ko'chasi 18/1, 182-xonada istiqomat qilgan (balki o'qigandir) Raisa Risqulova SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi raisi, general-leytenant A. Chepsov imzosi bilan quyidagi javobni oldi: "Shuni ma'lum qilamanki, 1902-yilda (yana chalkashlik) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan Risqulov M.R. 1938-yil 10-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan hukm qilingan. 1939-yil 21-sentabr kuni jazoni o'tash joyida sil kasalligidan vafot etgan".

Hatto oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, Mirzaqul Risqulov emas, aslida o'zlari sodir etgan jinoyatni xaspo'shlash uchun bu jazo masinasini xizmatkorlari uning farzandlarini ham aldashga uringan.

Lekin o'sha paytlar endigina 43 yoshdan oshgan xotini Risqulova Ravza Bozorboyevna 1955-yil 2-dekabrda yana yuqori davlat organlariga erining taqdirini aniqlashda yordam berishlarini so'rab murojaat qiladi. Endi mamlakatda 1937-1938-yillarda qatag'on qilinganlarga birmuncha yengillik berilgan, ulardan tirik qolganlarining bir qismi qamoqlardan ozod qilina boshlagan edi.

Ravza Risqulovaning maktubidan ayrim parchalar: "Erim 1937-yil hibsga olingandan so'ng meni ikki nafar yosh bolam bilan yashayotgan uyimdan ko'chaga haydashdi. Komsomoldan o'chirishdi. NKVDga chaqirib, "erim gunohkor" deb yozib ber, deb qiynab-qistashti. Erim bilan 7 yil yashab, uning biror-bir aybini, sovet tuzumiga qarshi ishini sezmaganimman. 19 yildan buyon "xalq dushmanining xotini", farzandlarim esa "xalq dushmanining bolasi", degan tamg'a bilan yashab kelayotirmiz. Shu sababli ular o'zlari istagan oliy o'quv yurtlariga qabul qilinmadi. O'tgan 19 yil ichida hech bir murojaatimga javob ololmadim. Hech bo'lmasa, bolalarim "xalq dushmani farzandi", degan tamg'adan ozod yashasin".

1956-yil kuziga kelib, M. Risqulov ishini tekshirish Bosh harbiy prokuratura xodimi Proshko familiyalis shaxsga topshiriladi. U M. Risqulov bilan xizmat qilgan Jalilov, Ochilov, Bekjonov, Mirabdullayev kabi kishilarni guvoh sifatida tergov qiladi. Mana, uning xulosalaridan ko'chirmalar: "Ularning barchasi Risqulovni har tomonlama ijobiy baholashdi va uning sovetlarga qarshi xatti-harakati haqida hech narsa bilmasligini aytishdi". "Bekmurodov va Borisov esa o'zlarining aytganlari butunlay boshqa bo'lib, tergov hujjatlarida soxtalashtirilgani, qo'shib-chatib yozilganini bildirishdi". "Aybdor deb topilgan shaxslar jismoniy qiynoqlar tufayli qilmagan ishiga iqrar bo'lishga majburlangan".

Mana shunday qayta tekshiruvlardan so'ng Mirzaqul Risqulovning butunlay aybsizligi, uning "aksilingilobchi-millatchilik faoliyati" boshdan-oyoq to'qima gaplar ekanligi ayon bo'ladi.

Shu sababli Turkiston harbiy okrugining harbiy prokuraturasi 1956-yil oxirida uning ishini qayta ko'rib, tarkibida jinoyat alomatlari bo'lmaganligi sababli harakatdan to'xtatgan va butunlay yopgan edi.

Muzaffar MUQIMOV, Sharof Rashidov nomidagi SamDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori.

GASHTAK ZIYOFATXO‘RLIK EMAS

Yoqilg‘i quyish shoxob-chasida elektr o‘chib, biroz kutib qoldik. Oldinda turgan haydovchi tanishimni ko‘rib, hol-ahvol so‘rash uchun mashinadan tushib bordim. U rulga boshini qo‘ygancha mudrab o‘tirardi.

- Ha, oshna, kechasi kalla yaxshi pishmadimi? - dedim hazilashib. U uyqusizlikdan qizargan ko‘zlarini zo‘rg‘a ochib, boshini ko‘tardi.

- Assalomu alaykum aka, kechirasiz. Jo‘ralar bilan gashtak o‘ynaganmiz, navbat bilan o‘tkazib turamiz. Kecha rosa ichibmiz, voy-voy, kallam tars yorilay deyapti-ya! Uyquning ham tayini bo‘lmadi. Lekin maza qildik, do‘stimiz aroqni importniysidan olgan ekan. - U inqillab, bazo‘r mashinadan tushib, salomlashish uchun qo‘l uzatdi.

- Suhbatlaring ham rosa qizigandir?

- Ey, qanaqa suhbat, aka? - U affini burishtirdi. - Kim nima haqida gapiryapti, kim gapirib, kim tinglayapti, bilmaysiz, nuqul aljirab, aroqdan qo‘y deyishadi, voy boshim...

Unga achindim, jismonan ham, ruhan ham egilgandi. To‘qlikka sho‘xlik, umr egovi bo‘lgan bunaqa gashtaklar nimaga kerak?

Gap-gashtak azaliy an‘analimizdan. Unda kundalik turmush tashvishlaridan charchagan yoru birodarlar, qo‘ni-qo‘shni mahalladoshlar vaqti-vaqti bilan to‘planib, chaq-chaqlashib, shirin suhbat qurishgan. G‘azalxonlik, dostonxonlik bo‘lgan, kuy-qo‘shiq tinglashgan, o‘yin-kulgi, askiya aytib, vaqtichog‘lik qilishgan. Bir-birining diydoriga to‘yishib, o‘zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlagan. Fikr-mulohazalari bilan o‘rtog‘lashib, to‘y-ma‘rakalar, odob-axloq, tarbiya, mahalla muammolari-ni birgalikda hal etish bo‘yicha maslahatlashib olishgan. Bir so‘z bilan aytganda, gashtak-gu-

runklar ma‘naviy ehtiyoj, ma‘rifiy-tarbiyaviy ma‘no kasb etgan. Bu azaliy odat hozirda ham davom etib kelmoqda: jo‘ra gashtak, dugona gashtak, kurs-dosh gashtak, hamkasb gashtak va hokazo.

Ammo ular avvalgi mazmun-mohiyatini yo‘qotayotganday. Bunga mulohazamiz boshlanishida misol keltirdim. Shiddatli taraqqiyot zamonida yashayapmiz. Yurtimiz tinch, osoyishta, to‘qchilik, turmushimiz farovon, har kuni bir yangilik, har kuni o‘zgarish. Vaqt uchqur, turmush tashvishlari borlig‘imizni shunchalik chulg‘ab olganki, ularni ado etishga yigirma to‘rt soatlik kecha-kunduz ham kamlik qilyapti. Jismonan, ruhan toliqasiz, hammasini bir zum unutilib, tin olgiz keladi. Shunday paytda vaqt topib, do‘stlar, qardrdonlar bilan shirin suhbat qurib, fikr almashish, bir qo‘l shaxmat o‘ynash, o‘qigan kitob taassurotlarini baham ko‘rish, she‘r o‘qish, qo‘shiq xirgoyi qilish charchoqlarni yozishga yordam beradi, ma‘naviy bahra olasiz.

Afsuski, hamma gashtaklar ham ana shunday mazmun-mohiyat kasb etmayapti. Aksariyati faqat ziyofatu yeb-ichish, ortiqcha sarf-xarajat, isrofgarchilik, oldi-qochdi g‘iybatlar bilan o‘tyapti.

Ruhshunoslarning ta‘kidlashicha, do‘stu qardrdonlar bilan tez-tez diydorlashib turish, yangiliklar, g‘oyalalar bilan o‘rtog‘lashish, oila davrasida kitobxonlik, sport bilan shug‘ullanish sog‘lom turmush garovi ekan.

Har kunimiz voqealar, yangiliklarga boy. Bu gashtak-gurunglarda dilkash suhbatlar mavzusi bo‘lishi kerak. Bunday davralar dunyoqarashni kengaytirib, kishiga jismonan va ruhan quvvat beradi. Ertangi kunga ishonchni orttirib, xayrli ishlar, orzu-istaklarni amalga oshirishga ilhomlantiradi.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.



Jamoat transporti muammolari qachon hal bo‘ladi?

Viloyat transport boshqarmasi tomonidan Samarqand shahrida jamoat transportida xizmat sifatini oshirish maqsadida olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan press-turda OAV xodimlari jamoat transportini nazorat qilish dispetcherlik markazi faoliyati bilan tanishdi.

Avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatida yo‘nalishga chiqqan 100 ga yaqin avtobusning qatnovi real vaqt rejimida kuzatib borilmoqda. - Bugungi kunda 6 ta elektrobus va siqilgan gaz bilan harakatlanuvchi 95 ta avtobusda kuzatuv kameralari va GPS qurilmalari o‘rnatilgan, - deydi boshqarmaning transport shu‘basi bosh mutaxassisi Behruz Ergashev. - Ularning aksariyati hozircha markazimizga ulanmagan bo‘lsa-da, bir oy ichida to‘liq integratsiya qilinadi.

Transport vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan Transport nazorati inspeksiyasi viloyat hududiy bo‘limi mutaxassislari viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari bilan birgalikda ish olib bormoqda.

- Joriy yil boshidan buyon 2600 ta yo‘lovchi tashuvchi transport vositasining noqon-

uniy faoliyati aniqlanib, dalolatnomalar tuzildi, - deydi inspeksiyaning viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘i Ravshan Tojiyev. - Ularning 1800 tasi belgilangan yo‘nalishdan tashqariga chiqib harakatlangani ma‘lum bo‘ldi. Hozirda viloyatda 30 dan ortiq noqonuniy bekat bor. Bu joylarni ham tartibga olish choralari ko‘rilmoqda.

- Xorijdan keltirilgan jamoat transportida nafaqat yo‘lovchilarga, balki ularning uy hayvonlariga ham maxsus qulayliklar yaratilgan, - deydi 1-M avtobusi haydovchisi To‘ychi Mirzayev. - Elektrobusimizda ATTO yoki plastik kartchaklardan foydalanuvchilar soni ham oshib borayotir. Kuniga 200-250 nafar yo‘lovchi elektron to‘lov qilmoqda. Bu biz uchun ham qulay.

- O‘tgan yili shahar bosh rejasiga ko‘ra, o‘nta ko‘chada maxsus “A” yo‘laklar tashkil etish rejalashtirilgandi, - deydi viloyat transport boshqarmasi bosh mutaxassisi Otabek Rahimov. - Hozircha Bo‘stonsaroy va Ibn Sino ko‘chalarida maxsus yo‘laklar tayyorlangan, biroq moliyaviy qiyinchiliklar tufayli yo‘l belgilari o‘rnatilmagani uchun undan foydalanmayapmiz. Xitoydan keltirilishi aytilgan 94 ta elektrobusning 30 tasi joriy yilning 15 apreligacha kelib, yo‘nalishlarga qo‘yiladi. Ungacha alohida yo‘laklar muammosi ham hal bo‘ladi degan umiddamiz.

Mahallada birorta ham yog‘och ustun qolmadi

asosida Oqtosh va Ko‘ktepa mahallalarida 2 ta 100 kVAlik transformator, 123 dona temir-beton ustun o‘rnatilib, 7,5 kilometrga yaqin tarmoq tortildi, - deydi Payariq tuman elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i Ne‘matillo Galaboyev. - Shuningdek, qo‘shimcha 1758 dona temir-beton ustun, 10 ta transformator punkti o‘rnatildi. Tuman bo‘yicha 78 kilometr masofaga 0,4-6-10 kV havo elektr uzatish tarmog‘i tortilgan. Ayni kunlarda so‘nggi montaj ishlari olib borilmoqda.

- Xalqobod - tumandagi yirik mahallalardan biri bo‘lib, aholisi doimiy elektr ta‘minoti uzilishlaridan aziyat chekardi, - deydi tuman elektr ta‘minoti korxonasi Chelak shaharchasi bo‘limi ustasi Nuriddin Bo‘ltakov. - Mana,

bir oy ichida mahalla hududiga 478 ta temir-beton ustun va 4 ta yangi transformator o‘rnatdik. Qariyb 18 kilometr elektr tarmoqlari yopiq kabellar bilan almashtirilgach, ming nafar iste‘molchining elektr ta‘minoti yaxshilandi. Endilikda mahallada 1960-1970-yillarda o‘rnatilgan birorta ham eski simyog‘och qolmadi.

Bundan tashqari, yil davomida tumandagi 65 ta mahallaga 12 ta transformator, 1300 dona temir-beton ustun o‘rnatildi. 40,2 kilometr masofadagi 0,4-6-10 kV havo elektr uzatish tarmoqlari yopiq kabellar bilan yangilandi. Natijada 35 ming iste‘molchining elektr energiya ta‘minoti yaxshilandi.

Dilmurod TO‘XTAYEV.

**SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR**

12-MART
Nasim HOSHI-MOV – (1920-2000)
Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti.

Qo‘ziboy MAMARAI-MOV - (1946-2024)
Payariq tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi, iqtisod fanlari doktori, professor.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali quyidagi lavozimlarga tanlov e‘lon qiladi:

Katta o‘qituvchi lavozimiga: “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiati” kafedrasiga.

O‘qituvchi lavozimiga: “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiati” kafedrasiga.

Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi ko‘rsatilgan pasport nusxasi, kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi, oliy ma‘lumoti haqidagi diplom nusxasi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar

va ixtirolar mavjud bo‘lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini, malaka oshirish haqidagi sertifikatlarni taqdim etishlari kerak.

Eslatma: Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e‘lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Cho‘pon ota ko‘chasi, 13-“A” uy.

Telefonlar: +99866-236-21-28, +99893-357-74-95.

Elektron manzil: samfilial@exat.uz FILIAL MA‘MURIYATI.

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Azimbayev Kamilga (2021-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodira-begim ko‘chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Ganiyev Raximga (2017-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Salomova Muybaga (2022-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Dustova Xikoyatga (2013-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud

Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Rozikov Xafiz Sharopovichga (2012-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘l ko‘chasi, 9-“B” uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand tumanidagi “TEMURXON GOLD MEBEL” oilaviy korxonasi-ni (STIR: 308192935) dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 686 nusxada chop etildi. Buyurtma 136. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO‘MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda